Qishloq xo’jaligi ekinlari uchun preparatlar va ularni amaliyotga joriy qilish

O’zR FA Bioorganik kimyo institutida O’zbekiston Respublikasi Qishloq xo’jalik vaziri va xodimlari bilan uchrashuv tashkil qilindi.

Uchrashuvda Institutda qishloq xo’jaligi yo’nalishidagi ishlanmalar, olimlar tomonidan yaratilgan preparatlar, ularning qo’llanilish sohalari, hozirgi holati va amaliyotga joriy etish uchun qanday muammolar mavjudligi haqida to’liq ma’lumotlar berildi.

Shuningdek, Institut xodimlari va vazirlik tomonidan ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish, ularning realizatsiyasini jadallashtirish maqsadida marketing sohasini jalb qilgan holda aniq rejalar tuzish va uni amalga oshirish bo’yicha fikr almashildi.